

**SAMARQAND VILOYATI ISHTIXON TUMANI RIVOJLANISHINING GEOGRAFIK ASOSLARI**

**Rahmatullayeva Bahora Aziz qizi**

*O'zMU Geografiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

+998882041701, rahmatullayevabahora2@gmail.com

**Xakimov Kamoliddin Abdulkarimovich**


*O'zMU Tabiiy geografiya kafedrasи dots.v.b., G.f.f.d. (PhD)*

+998901375533, Kamoliddin\_001@mail.ru

**Annotatsiya:** Mazkur tezis Samarqand viloyati tumanlaridan biri bo'lgan Ishtixon tumanining o'ziga xos geografik xususiyatlariga, rivojlanishiga bag'ishlangan bo'lib, unda ziyoratgohlar va boshqa geografik obyektlari haqida ma'lumotlar va takliflar berilgan.

**Kalit so'zlari:** shahar, tuman, masjid, istirohat bog'i, qabriston, Chor chinor, turizm, Zarafshon daryosi, Zarafshon tog'i.

Samarqand viloyati respublikamizdagi eng birinchi tashkil etilgan viloyatlardan biri hisoblanib, 1938-yil 15-yanvarda ushbu ma'muriy maqomini olgan. Samarqand viloyati tabiiy-geografik jihatdan Respublikamizning janubiy-sharqiy qismida joylashgan bo'lib, u Pomir-Oloy tog'larning g'arbiy chekkasida, Zarafshon daryosining o'rta oqimida joylashgan.



1-rasm. Tadqiqot obyektining Respublikamiz xaritasidagi o'rni


Hudud relyefi, asosan, tekislik, adir, tog'lardan va tog' oralig'i botiqlaridan iborat. Tekisliklar Samarqand viloyatining janubiy-sharqida (Qarnob cho'lida) va Zarafshon vodiysining o'rta qismlarini egallaydi. Viloytning eng baland nuqtasi 2000-2100 metrga yetadi. Ular o'z navbatida viloyatimiz hududidagi Zarafshon va Nurota tizmalarida, Urgut hamda Qo'shrabod tumanlarining eng chekka qismlarida qad ko'targan. Samarqand viloyatining sharqiy qismida joylashgan tumanlarning ko'pchiligi asosan Zarafshon daryosi terrasalaridagi baland teksliklarga to'g'ri keladi.

Hudud Zarafshon daryosi sohillaridan shimolga va janubga, shuningdek g`arbiy qismida janubiy-sharqqa tomon sekin asta ko`tarilib boradi. Urgut, Qo'shrabot va Nurobod tumanlari esa tog' va tog' oldi hududlariga to`g'ri keladi.

Samarqand viloyati maydoni 16.8 ming km<sup>2</sup> yoki O'zbekiston hududining 3.7 foiziga teng. Samarqand viloyatida rekreatsiya resurslariga boy bo`lib, xususan tog` va tog' etaklarida, daryo va soy bo'ylarida juda ko'p. Hozirgi vaqtida ulardan samarali foydalanish katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, Zarafshon tog'laridagi g'orlar, Urgut hududidagi "Chor chinor" va Nurobod tumanidagi buloqlar diqqatga sazovor.



1-rasm. Chorchinor  
ziyorotgohi



2-rasm.  
Chorchinorning ichi




3-rasm. Chorchinor  
ichidan madrasa sifatida  
foydalanilishi

Samarqand viloyati tarkibiga kiruvchi qishloq tumanlari va ularning maydoni

T/r	Qishloq tumanlari	Tashkil topgan yili	Tuman markazi
1.	Bulung'ur	29.09.1926	Bulung'ur sh.
2.	Jomboy	07.12.1970	Jomboy sh.
3.	Ishtixon	18.05.1943	Ishtixon sh.
4.	Kattaqo'rg'on	02.02.1929	Kattaqo'rg'on sh.
5.	Narpay	29.09.1926	Oqtosh sh.
6.	Nurobod	26.11.1975	Nurobod sh.
7.	Oqdaryo	25.12.1968	Loyish sh.
8.	Payariq	29.09.1926	Payariq sh.
9.	Pastarg'om	29.09.1926	Juma sh.
10.	Paxtachi	12.04.1973	Ziyodin sh-cha.
11.	Samarqand	29.09.1926	Gulobod sh-cha.
12.	Toyloq	09.04.1992	Toyloq sh-cha.
13.	Urgut	31.02.1964	Urgut sh.
14.	Qushrabot	03.04.1978	Qo'shrabot sh-cha.
15.	Samarqand viloyati	01.15.1938	Samarqand sh.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlar



4-rasm. Samarqand viloyati tuman maydonlarining diagrammada aks etilishi

Maydoni bo'yicha eng katta tuman Nurobod tumani bo'lib, maydoni 4,86 ming km<sup>2</sup> yoki viloyat hududining 28,9% ini tashkil etadi. Kattaligi jihatdan ikkinchi o'rinda

Qo'shrabot tumani bo'lib, maydoni 2,16 ming km<sup>2</sup>. Viloyatda eng kichik tumanlardan biri Toyloq tumani hisoblanib, hududi atigi 0,28 ming km<sup>2</sup>. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, viloyat tumanlari maydoni turli kattalikka ega va hududiy va hududiy tafovut ancha katta.

**Ishtixon tumani.** Ishtixon Zarafshon vodiysidagi qadimgi shahar bo'lib, karvon yo'li ustida joylashgan. Qachon paydo bo'lganligi haqida aniq ma'lumotlar yo`q. Ko'pchilik manbalarda Samarqand arablar tomonidan bosib olingan, so'ng sug'd ixshidlari Ishtixonga kelib uni poytaxt qilgan. Ko'pincha Ishtixon so'zining ma'nosi xalq orasidagi rivoyatlarda ham turlicha talqin etiladi. X asrlarda Ishtixon shahri shahriston va robat kabi aholi manzilgohlaridan iborat shahar bo'lgan. Ishtixon shahri tarixiy manbalaradasovdo-sotiq rivojlangan, atrofi bog'-rog'dan iborat dalalar, qishloqlardan iborat ko'rakm shahar deb tan olinadi. Ishtixonga Zarafshon daryosidan kanal orqali suv keltirilgan.

Bir necha asrlardan so'ng ishtixon shahri o'z mavqeyini yo'qotadi va uning o'rnida Ishtixon qishlog'i barpo etiladi. Keyinchalik bu qishloq tuman maqomini oladi. Ishtixon tumani – O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyatining markaziy qismida joylashgan tumanlardan biri. U Samarqand shahridan 54 km uzoqlikda, shimoliq`arbida joylashgan. Ishtixon tumanining shimoliy qismida Qo'shrabot, shimoliy-sharqida Payariq, janubi-g'arbida Kattaqo'rg'on, janubida Pasdarg'om tumanlari bilan chegaradosh.

1.	Ma'muriy markazi:	Ishtixon shahri.
2.	Maydoni:	0,72 ming km <sup>2</sup>
3.	Aholisi:	270164 kishi
4.	Shahar aholisi:	17461 kishi
5.	Aholi zichligi:	375,2 km kv / kishi

#### Ishtixon tumanidagi geografik obyektlar haqida ma'lumot

T/r	Shaharlар	Shahar chalar	Aholi punkti soni	Mahallalar soni	Qabristonlar soni	Ziyorat goharlar	Istirohat bog'	Maydonlar soni
1ta	12ta	170ta	62ta	150ta	3ta	1ta	1ta	1ta

Ishtixon tumani hududi tabiiy jihatdan, Zarafshon daryosi ikkiga ajralgan qismida, ya'ni shimoldan Oqdaryo, janubdan Qoradaryo oralig'idagi Miyonqol orolida joylashgan. Tuman relyefi jihatidan biroz notejis bo'lib, shimoliy qismi Oqtog` tog'ining adir va qirlariga tog'ri kelsa, janubiy qismi esa Zarafshon tog'larining janubiy tog`oldi tekisliklariga to`g'ri keladi. Vegetatsiya davri o'rta hisobda 130-150 kunni tashkil etadi. Tumanda eng past harorat 1969-yilda kuzatilgan bo'lib, qayd etilgan bo'lib, - 27° C ni qayd etgan. Tuproqlari haqida aytadigan bo'lsak, daryo yonida o'tloq va o'tloqi-botqoq, markaziy qismlarida esa oddiy bo'z hamda allyuvial o'tloqi tuproqlarni ko'rishimiz mumkin. Janubiy qismidagi Qoradaryo o'ziga xos gidrografik

chevara vazifasini ham bajaradi. Ushbu daryo bir nechta qishloq va pasyolkalar bir biridan ajratib turadi.

Ishtixon tumani aholisi asosan Oqdaryo va Qoradaryo bo`ylarida nisbatan zinch joylashgan. Sanoat korxonalari ham aynan ushbu daryo bo`ylarida, aholi manzilgohlariga yaqin hududlarida qurilgan. Hozirgi kunda Ishtixon tumani sanoatida aynan yengil sanaotining ulushi yuqori va ip-yigiruv, tikuvchilikka ixtisoslashib bormoqda. Paxta tozalash zavodi (Mitan shaharchasida), g`isht zavodi, konserva zavodlari, non sexlari va yana boshqa ko`plab zavodlar joylashgan va faoliyat yuritmoqda.

Ishtixon tumanida bir nechta ziyoratgohlar mavjud bo`lib, bularga “Polvon ota” ziyoratgohi, “Boylata” arxeologiya yodgorliklarini misol sifatida keltirishimiz mumkin.

“Polvon ota” ziyoratgohi muqaddas qadamjo hisoblanadi. Bu ziyoratgohning hozirgi binosi 1989-1990-yillarda hashar yo`li bilan barpo qilingan.

Yana bir qadimiy ziyoratgohlardan biri bu Boylar Ota mahalasidagi “Boylata” ziyoratgohi. Bu ziyoratgoh XIX asrda jome masjidi sifatida qurilgan. Hozirgi kunda davlat tomonidan muhofazaga olingan.

Hozirgi binosi esa to`liq ta`mirlanmagan. Eski Masjidning oldi tomonida o`ziga xos bog` barpo etilgan bo`lib, bu bog`da olxori, o`rik, shaftoli, shuningdek, xurmo daraxtlari ko`p. Yangi binosini oldi qismida madaniylashtirilgan archa daraxtlari ekilgan.



**“Boylata jome”masjidining eski binosi (5-6-rasmlar)**

### Xulosa

Ishtixon tumanini rivojlantirish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni berish mumkin:

- Transport xizmati sifatini takomillashtirish, jumladan tuman hududidan qishloqlarga boradigan yo'llarni ta`mirlash va avtobuslar qatnovini yo'lga qo'yish:

- Daryo yonida kurort zonalari tashkil etish:

- Ziyorat turizmi sohasini ham keng yo'lga qo'yilishi lozim.

Yuqoridagi vazifalarni bajarish Ishtixon tuman hududi rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abdullayev M., Aminova S., Asrorov M., Axmedov Q., Beknazarov B. va boshqalar. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 9-tom. – T. "Davlat milliy nashriyoti", 2005.
2. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M. Shaharlar geografiyasi. O'quv qo'llanma. – T. "Barkamol fayz media", 2018.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statestika qo'mitasi ma'lumotlari.
4. Samarqand viloyati statistika qo'mitasi ma'lumotlari. 2023 yil.
5. [Https://uz.m.wikipedia.org](https://uz.m.wikipedia.org).